MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON V-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

KORXONA RAHBARIYATI TOMONIDAN ICHKI NAZORAT TIZIMINING CHETLAB O‘TILISHI BILAN BOG‘LIQ AUDITORLIK RISKLARINI BAHOLASH 9
Botirova Rahimaxon, Sirojiddinov Ikromiddin
PA-6 ASOSLI NANOKOMPOZIT OLISH TEXNOLOGIYASI VA TAHLIL USULLARI 16
Qurbonov Mahmudjon Xusanboy o‘g‘li
QASHQADARYO VILOYATIDA TASHQI VA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI 21
Xadjibekova Aziza Akbarovna
ALSI QOPLAMALI HS1300T/950Y MS MARTENSITLI PO‘LATNI FIBER LAZER BILAN KESISHDA YORDAMCHI GAZ TURI VA QOPLAMANING SHLAK HOSIL BO‘LISHIGA TA’SIRI 31
Alijonov Qobiljon, Tursunov Shovkat
OCHIQ BANK EKOTIZIMIDA RISKLARNI MIQDORIY BAHOLASH VA MONITORING QILISH MODELLARI: “ORIENT FINANS” XATB MISOLIDA 39
Abduvahobov Shohruh Xolmo‘min o‘g‘li
SILINDRIK ADSORBSION FILTRLARDA O‘ZGARUVCHAN TEZLIKLI RADIAL OQIM SHAROITIDA BIR KOMPONENTLI MODDANING KO‘CHISHI VA ADSORBSIYASINI GRANULA ICHIDAGI DIFFUZIYANI HISOBGA OLGAN HOLDA HISOBLASH TAJRIBALARI 46
Ermonova Mohinur Umidjon qizi
O‘ZBEKISTONDA SANOAT MAHSULOTLARINI MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI CHUQURLASHTIRISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 56
Sobitova Ra’no Solidjonovna
KOMMUNAL XO‘JALIKNI RAQAMLASHTIRISH VA “AQLLI SHAHAR” TEXNOLOGIYALARINING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH 60
Odamboyev Oybek Ravshanbek o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ БАНКОВ И МАЛОГО БИЗНЕСА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ КРЕДИТНЫХ ПРОЦЕССОВ 66
Хаитов Хаёт
YIGIRUV JARAYONIDA HOSIL BO‘LADIGAN TOLA CHIQINDILARIDAN QAYTA FOYDALANISHNING IP SIFATIGA TA’SIRI 71
Shodmonkulov Alisher, Jalilov Dilshod
GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINING EKSPLUATATSION ISHONCHLILIGINI OSHIRISHDA INYEKSIYA CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI 77
Qahhorov O‘ktam, Kurbanova Khurshida, Kurbonov Ulug‘bek
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI XAVFSIZLIGINI STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHDA XITOY TAJRIBASI HAMDA UNI O‘ZBEKISTON AMALIYOTIGA MOSLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 86
Muminov Najmiddin, Bakiyev Elyorbek
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNING HOZIRGI HOLATI VA TENDENSIYALARI 93
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
DESIGNING A REPRODUCIBLE FRAMEWORK FOR RESPONSIBLE AI-ENABLED HUMAN RESOURCE ANALYTICS IN HIGHER EDUCATION: A METHODOLOGICAL STUDY IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN 102
Narmuradova Sitora Aktamovna
YASHASH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO‘RSATUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI 108
Ganiyev Firdavs Abduraufovich

ANALYSIS OF THE POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF ENTERPRISES 113
Shakirova Farogat Boltayevna
KORXONALARDA LOGISTIK KONSENTRATSIYA VA TAQSIMOT TIZIMLARINI INTEGRATSIYALASH STRATEGIYALARI 119
Bazorboyeva Farangiz, Xudiyarova Shahzoda, Narzullayev Shodiyor
TEMIR YO‘L KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 125
Misirov Xurshid Mamasobirovich
TA’MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI 132
Rahmataliyev Salohiddin, Obidjonov Azizbek, Erkinxojiyev I.I
IQTISODIYOTDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING ROLI VA AHAMIYATI 138
Karimov Abdusamat Ismonovich
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH STRATEGIYASINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 144
Nasibboyev Fazliddin Sirojiddinovich
YASHIL INNOVATSIYALARNING IQTISODIYOTGA TA’SIRI 150
Razakova Barno Sayfiyevna
TEMIR YO‘L TRANSPORTIDA HR AMALIYOTLARINING SAMARADORLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH: XORIJIY TADQIQOTLAR SHARHI VA USLUBIY YONDASHUVLAR 156
Xursanova Gulshan Ravshan qizi
FARG‘ONA VODIYSI TUMANLARINI INTEGRAL BAHOLASH VA TIPOLOGIYALASH ASOSIDA INVESTITSION RIVOJLANISH YO‘NALISHLARINI ASOSLASH 162
G‘ulomov Ulug‘bek G‘afurovich
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 169
Kulboyeva Nargiz Majitovna
QASHQADARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATIDAN FOYDALANISHNING HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI 176
Uzoqov Jamshid, Boboqulov Oybek
O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY BANK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH TIZIMI: SHARIAT BOSHQARUVI MODELINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 182
Sulaymanov Arslonbek Faxriddin o‘g‘li
SAMARQAND VILOYATI XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH 189
Shadiyeva Gulnora, Yuldasheva Sevinch
IJTIMOIY MEDIA FAOLLIGINING OLIY TA’LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MANFAATDOR TOMONLAR TOMONIDAN IDROK ETISHDAGI ROLI 194
Urinov Bobur, Nazarov G‘ulom
YASHIL KREDITLASH AMALIYOTINING XALQARO TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH 202
Usmonova Gulasal Akmal qizi
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ И ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН 207
Махамбетова Урингуль Реймбаевна
TRANSPORT VOSITALARINI KORROZIYADAN HIMOYA QILUVCHI QOPLAMANING ADGEZION MUSTAHKAMLIGINI TADQIQ QILISH 213
Ibragimov Botir Dastamovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SPORT TASHKILOTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 220
Yusupov Maxamadamin, Zakirova Umida
IQTISODIY SAMARADORLIK KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH OMILI SIFATIDA 225
Dadayev Quvonish Mashrabovich
MAISHIY XIZMATLAR SIFATINING MIJOZLAR SODIQLIGI VA KORXONALAR DAROMADIGA TA’SIRI 235
Shadiyeva Gulnora, Sharipova Yulduz
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RISK-YO‘NALTIRILGAN ICHKI AUDIT VA MOLIYAVIY NAZORAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH 240
Halilov Boburjon Sobirjon o‘g‘li
SAMARQAND VILOYATIDA BILIMGA ASOSLANGAN XIZMATLAR (ALOQA-AXBOROT VA MOLIYAVIY XIZMATLAR) RIVOJLANISHINING HUDUDIY IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI 250
Abdullayev Jamshid Obidovich
SUT YO‘NALISHIDAGI CHORVACHILIKDA OZUQA XARAJATLARINI ENERGIYA EHTIYOJI (MJ) BO‘YICHA TAQSIMLASH VA MAHSULOT TANNARXINI KO‘P DRAYVERLI KALKULYATSIYA QILISH MODELI 258
Mardonov Mamed Shavkatovich
QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINING MOLIYAVIY RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILI 265
Boboyeva Shoira Shoniyozovna
SAMARQAND VILOYATI OZIQ-OVQAT SANOATIDA MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASINING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI 271
Shadiyeva Gulnora, Jumayev Shoxrux
MARKAZIY BANK MUSTAQILLIGI VA INFLATSIYANI MAQSADLI BOSHQARISH REJIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON AMALIYOTI 279
Safarov Sardor O‘tkirjon o‘g‘li
DOES REGIONAL ECONOMIC INTEGRATION PROMOTE ECONOMIC GROWTH? EVIDENCE FROM THE EURASIAN ECONOMIC UNION (EAEU) – USING PANEL DATA ANALYSIS, 2000–2025 283
Muhammad Eid Balbaa
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORINING INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI: MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA’SIRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA IQTISODIY O‘SISH BILAN BOG‘LIQLIGI 289
Zuvaydullayev Nematullo Oybek o‘g‘li
TRANZIT YO‘LDAGI SERVIS MAJMUASINI LOYIHALASH VA XALQARO AVTOPOYEZDLAR UCHUN TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNIK SERVIS TIZIMINING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGI 295
Do‘maxonov Furqatbek Shuxrat o‘g‘li
STRATEGIK MENEJMENT ORQALI MILLIY IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH 303
Oralbaeva Diana, Koshanov Abdimurat
ВЛИЯНИЕ МЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ СОЛНЕЧНЫХ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ОБЗОР И КЛИМАТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ UZBEKISTAN GTL 309
Ботиров Бозорбек, Курбанов Юнус, Пардаев Бахром, Отаева Лилия
KAPITAL BOZORI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 318
Turdieva Uzayda Omirbaevna
DAVR XARAJATLARI AUDITIDA TAHLILIY AMALLARNI QÖLLAŞ YÖNALIŞLARI 325
M.B. Nizekeyev
MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 329
Maxmudov Azamat Normuradovich
PHOTOMETRIC METHOD FOR DETERMINING THE FINENESS OF WOOL FIBERS 334
Valieva Zulfiya, Sa’dullayev Shaxriyor

ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЁРСТВО В РЕАЛИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В СФЕРЕ УСЛУГ 338
Насиров Дилшод, Нематова Адолат
УПРАВЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО ПЕРЕХОДА: ОБЗОР ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ЭМПИРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ 344
Якубов Д.К., Далмурадова Н.Н.
DAVLAT OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA SMETALAR IJROSI HISOBOTI, SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA 355
Norquchqorov Abdulaziz Ziyodulla o‘g‘li
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI 363
Ismailov Erkin Faxretdinovich
TEMIR YÖL TRANSPORTI KORXONALARIDA DAROMADLAR, XARAJATLAR VA XIZMATLAR TANNARXI HISOBINI TAKOMILLAŞTIRIŞ 371
Misirov Xurşid Mamasobiroviç
SANOAT KORXONALARIDA MARKETING SAMARADORLIGINI AHP, DEA VA KPI KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH 380
Bazarova Mamlakat, Navruz-zoda Layli
RAQAMLI STRATEGIK BOSHQARUV MODELI VA INTEGRAL INDEKS ASOSIDA OLIY TA’LIM MUASSASALARI SAMARADORLIGINI MAQSADLI BAHOLASH 386
Badalova Lola Borisovna
TARKIBIY OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY PARAMETRLARINI ANIQLASH MODELI 391
Shukurov Ulug‘bek Shokirovich
BANK VA MOLIYA BOŞQARUVIDA XALQARO REYTING VA INDEKSLARNING ÖZARO UYĞUNLIGI 395
Kamolova Gulhayo
ESG AUDITNI O‘TKAZISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 400
Zufarova Z. R.
IMPROVING THE METHODOLOGY FOR FORMALIZING THE SHADOW ECONOMY THROUGH FISCAL INSTRUMENTS: EVIDENCE FROM TAX BURDEN REFORMS IN UZBEKISTAN 405
Ergasheva Malikakhon Avazkhon qizi
BANKLARNING AML-TIZIMLARIGA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETIŞ METODOLOGIYASI: XARAJATLAR FUNKSIYASI, YETUKLIK MODELI VA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGI (ÖZBEKISTON MISOLIDA) 412
Raşidov Avazbek
TIJORAT BANKLARI AKTIV OPERATSIYALARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS VA INTEGRAL BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH 422
Sharipova Dilfuza Jumaniyazovna
MIS ISHLAB CHIQARISH SHLAKLARINI FLOTATSION BOYITISH JARAYONI CHIQINDILARINI ISHQORIY MUHITDA KUYDIRISHNING TERMODINAMIK KO‘RSATKICHLARINI TADQIQ ETISH 428
Axmedova Nigora Erkin qizi
OLIY TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA VAUCHERLI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 435
Jurayev Yigitali Davronovich
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI ORQALI MAMLAKAT HUDUDIGA JALB QILINADIGAN INVESTITSIYALAR HISOBI 441
Misirov Asliddin, Xushvaqtov Shamshodjon, Mehriddinov Bahrom
EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARI AUDITINI O‘TKAZISH TARTIBI 445
Misirov Asliddin, Ishmuratov Diyorbek, Gurbandurdiyev Permanbek
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI INVESTITSIYA SAMARADORLIGIGA MOLIYAVIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARNING TA’SIRI: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR MISOLIDA 449
Butayev Javlonbek Inatillo o‘g‘li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SANOAT TARMOQLARI DIVERSIFIKATSIYASINING OPTIMAL DARAJASINI ANIQLASH VA BAHOLASH454
Jalilov Bahrom Sotiboldievich
BITIRUVCHILAR MALAKASI VA ISH BERUVCHILAR TALABI O‘RTASIDAGI NOMUVOFIQLIKNI BAHOLASH METODIKASI 459
Xolmuxamedov Muxsinjon Murodullayevich
TANLOV VA TENDERLARDA BAHOLASH MEZONLARINI KICHIK BIZNES IMKONIYATLARIGA MOSLASHTIRISH 465
Axmedjanov Sardorbek Anvarovich
СТРУКТУРА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ СИСТЕМЫ: ЧЕТЫРЁХКОМПОНЕНТНАЯ МОДЕЛЬ И ЕЁ ЭМПИРИЧЕСКАЯ ПРОВЕРКА 469
Курбонова Маъмура Абдукари қизи
QASHQADARYO VILOYATI AHOLISI O‘RTASIDA KAMBAG‘ALLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI 478
Xushvaqov Anvar Boqiyevich
SOLIQ TUSHUMLARINING YIG‘ILUVCHANLIK DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 483
Berdiyeva Uguloy Abdurahmonovna

SOLIQ TUSHUMLARINING YIG‘ILUVCHANLIK DARAJASINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Berdiyeva Uguloy Abdurahmonovna
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: uguloy555@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik darajasini baholashda prognoz bajarilishi va mutlaq o‘sishga asoslangan amaldagi yondashuvlarning cheklovlari tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi hamda Milliy statistika qo‘mitasining 2021–2025-yillardagi ma’lumotlari asosida tushumlarning YaIMga nisbati va ta’sirchanlik (buoyancy) koeffitsiyenti hisoblanib, ularning o‘sishi baza va yig‘iluvchanlik effektlariga ajratilgan. Makroiqtisodiy, rejaviy va ma’muriy darajalarni qamrab oluvchi uch bosqichli baholash metodologiyasi hamda integral indeks taklif etilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2022–2024-yillarda tushumlar o‘sishi soliq bazasi o‘sishidan ortda qolgan, 2025-yilda esa 7,3 trln so‘mlik ijobiy yig‘iluvchanlik effekti kuzatilgan.

Kalit so‘zlar: soliq tushumlari, yig‘iluvchanlik darajasi, ta’sirchanlik koeffitsiyenti, baza effekti, prognoz bajarilishi, ixtiyoriy to‘lov, soliq qarzdorligi, integral indeks.

Abstract. The article analyzes the limitations of existing approaches to assessing tax revenue collectability that rely on forecast fulfillment and absolute revenue growth. Using data from the Tax Committee and the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan for 2021–2025, the tax revenue-to-GDP ratio and tax buoyancy coefficient are calculated, and revenue growth is decomposed into base and collectability effects. A three-stage assessment methodology covering macroeconomic, planning, and administrative levels, along with an integrated collectability index, is proposed. The calculations indicate that tax revenue growth lagged behind tax base growth during 2022–2024, while a positive collectability effect of UZS 7.3 trillion was observed in 2025.

Keywords: tax revenues, tax collectability, tax buoyancy coefficient, base effect, forecast fulfillment, voluntary tax payment, tax arrears, integrated index.

Аннотация. В статье проанализированы ограничения действующих подходов к оценке уровня собираемости налоговых поступлений, основанных на выполнении прогнозных показателей и абсолютном росте поступлений. На основе данных Налогового комитета и Национального комитета по статистике Республики Узбекистан за 2021–2025 годы рассчитаны отношение налоговых поступлений к ВВП и коэффициент налоговой отзывчивости (tax buoyancy), а прирост поступлений разделён на эффект налоговой базы и эффект собираемости. Предложены трёхуровневая методология оценки, охватывающая макроэкономический, плановый и административный уровни, а также интегральный индекс собираемости. Расчёты показали, что в 2022–2024 годах рост налоговых поступлений отставал от роста налоговой базы, тогда как в 2025 году наблюдался положительный эффект собираемости в размере 7,3 трлн сумов.

Ключевые слова: налоговые поступления, уровень собираемости налогов, коэффициент налоговой отзывчивости, эффект налоговой базы, выполнение прогноза, добровольная уплата налогов, налоговая задолженность, интегральный индекс.

KIRISH

Soliqlarning budjetga qay darajada to‘liq va o‘z vaqtida tushishi davlat moliyasining barqarorligini belgilaydi. 2025-yilda davlat budjeti daromadlari 359,8 trln so‘mni tashkil etgan [24], shundan soliq organlari tomonidan 247,8 trln so‘m ta’minlangan [19]. Bunda “qancha yig‘ildi” degan savol bilan birga “mavjud soliq bazasidan qanchasi yig‘ildi” degan savolga javob berish muhim.

Soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik darajasi deganda qonunchilikda belgilangan soliq majburiyatlarining budjetga to‘liq va belgilangan muddatlarda tushish darajasi tushuniladi. Amaliyotda bu ko‘rsatkich ko‘pincha prognoz bajarilishi va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan cheklanadi. Masalan, 2025-yil uchun 224 trln so‘mlik vazifa [16] 110,6 foizga bajarilgan. Biroq bu o‘lchovlar nominal YaIM o‘sishi va soliq stavkalaridagi o‘zgarishlar ta’sirini ajratmaydi, prognozning o‘zi qanchalik asoslanganini ham ko‘rsatmaydi.

Soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilish darajasi 2025-yilda 97 foiz [18], 2026-yilning yanvar–sentabr oylarida esa 89 foiz deb e'lon qilingan [22]. Bu farq to'lov intizomi bilan birga o'lchash davrining bir xil emasligini ham aks ettiradi. Ixtiyoriy to'lov darajasini 2030-yilgacha 98 foizga yetkazish maqsadi [2] baholash metodologiyasini yagona tizimga keltirishni talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi yig'iluvchanlik darajasini makroiqtisodiy, rejaviy va ma'muriy darajalarda kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish va uni 2021–2025-yillar ma'lumotlarida sinovdan o'tkazishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq yig'iluvchanligini o'rganishning nazariy asosi soliq to'lovchining xatti-harakatini tavakkalchilik sharoitidagi qaror sifatida ko'rib chiqqan M. Allingham va A. Sandmo modeliga borib taqaladi: soliqdan bo'yin tovlash hajmi tekshiruv ehtimoli va jarima miqdoriga bog'liq [3]. Demak, yig'iluvchanlik soliq bazasi bilan birga nazorat salohiyati bilan ham belgilanadi. V. Tanzi esa tushumlarni yig'ishdagi kechikish inflyatsiya sharoitida ularning real qiymatini kamaytirishini isbotlagan [14], ya'ni baholashda to'liqlik bilan birga o'z vaqtidalik mezoni ham hisobga olinishi lozim.

Xalqaro tadqiqotlarda yig'iluvchanlik ko'pincha "soliq sa'y-harakati" (tax effort), ya'ni haqiqiy tushumlarning soliq salohiyatiga nisbati orqali baholanadi. A. Gupta rivojlanayotgan mamlakatlar ma'lumotlari asosida tushumlarning tarkibiy omillarini aniqlagan [6], T. Le va hammualliflari soliq salohiyatini stoxastik chegara usulida baholagan [10]. R. Bird, J. Martinez-Vazquez va B. Torgler yig'iluvchanlikka korrupsiya darajasi va hisobdorlik kabi institutsional omillar sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [5].

Tushumlarning iqtisodiy o'sishga javobini o'lchashda V. Belinga va hammualliflari qo'llagan ta'sirchanlik (buoyancy) koeffitsiyenti keng tarqalgan: uzoq muddatda uning birga yaqinligi soliq tizimining barqarorligini bildiradi [4]. XVJning RA-GAP metodikasida E. Hutton soliq tafovutini soliq siyosati bilan bog'liq tafovut va soliq majburiyatlarini bajarishdagi tafovutga ajratgan [7]. Bu ajratish stavka yoki imtiyozlar o'zgarishi natijasidagi pasayishni soliq ma'muriyatchiligi bilan bog'liq omillardan farqlash imkonini beradi.

J. Slemrod ma'muriy ma'lumotlarga asoslangan ko'rsatkichlarning ahamiyati ortib borayotganini ta'kidlagan [13], M. Keen va J. Slemrod ma'muriyatchilik xarajatlari va qo'shimcha tushum o'rtasidagi optimal muvozanatni asoslagan [8]. E. Kirchlerning "sirpanchiq qiyalik" (slippery slope) konsepsiyasi ixtiyoriy va majburiy to'lovni alohida baholash zarurligini ko'rsatadi [9]. OECD qiyosiy hisobotlarida esa muddatida to'lash darajasi va qarzdorlikning tushumlarga nisbati asosiy ko'rsatkichlar sifatida qo'llaniladi [12].

Rossiya iqtisodiy maktabida yig'iluvchanlik odatda amalda to'langan summaning hisoblangan summaga nisbati sifatida talqin etiladi, I.A. Mayburov esa ma'muriyatchilik samaradorligini fiskal natija va xarajatlar nisbati orqali baholaydi [11]. A.V. Vahobov va A.S. Jo'rayev soliqlarning fiskal funksiyasini budjet daromadlarini barqaror shakllantirish bilan bog'liq holda yoritgan [15]. Biroq mavjud ishlarda makroiqtisodiy baza, prognozlash sifati va ma'muriy ko'rsatkichlarni bir tizimda birlashtiruvchi, O'zbekistonning rasmiy statistikasiga moslashtirilgan baholash metodologiyasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu bo'shliq tadqiqotning ilmiy muammosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2021–2025-yillar uchun Soliq qo'mitasining tushumlar, prognozlar, ixtiyoriy to'lov va qarzdorlik bo'yicha rasmiy ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining qayta hisoblangan YaIM qatori qo'llanildi [16–23; 25; 26]. 2021-yil tushumi 2022-yil tushumi (148,4 trln so'm) va undagi o'sish (20,4 trln so'm) asosida 128,0 trln so'm deb aniqlandi [26]. Qiyosiy va koeffitsiyentli tahlil, dekompozitsiya hamda integral indeks usullaridan foydalanildi; hisob-kitoblar MS Excel'da bajarildi.

Taklif etilayotgan metodologiya uch darajadan iborat. Birinchi bosqichda, ya'ni makroiqtisodiy darajada soliq tushumlarining soliq bazasi bilan mutanosibligi baholanadi. Buning uchun soliq tushumlarining YaIMdagi ulushi (1) va ta'sirchanlik koeffitsiyenti (2) hisoblanadi:

$$d_t = T_t / Y_t \times 100; \quad (1)$$

$$\beta_t = (T_t / T_{t-1} - 1) / (Y_t / Y_{t-1} - 1), \quad (2)$$

bu yerda T_t – soliq tushumlari; Y_t – joriy narxlardagi YaIM. Tushumlar o'sishi baza effekti va qoldiq – yig'iluvchanlik effektiga ajratiladi (3). Qoldiqqa soliq siyosati o'zgarishlari ham ta'sir qiladi, shu sababli u stavkalar o'zgargan yillarda alohida izohlanadi.

$$\Delta T_t = T_{t-1} \times (Y_t / Y_{t-1} - 1) + R_t. \quad (3)$$

Shundan kelib chiqib, haqiqiy tushumning bazaga mutanosib kutilgan tushumga nisbati – bazaviy yig'iluvchanlik koeffitsiyenti (BYK) taklif etiladi (4). BYK > 1 tushumlar bazadan tezroq o'sganini bildiradi:

$$BYK_t = T_t / [T_{t-1} \times (Y_t / Y_{t-1})]. \quad (4)$$

Rejaviy darajada prognoz bajarilish koeffitsiyenti (PBK) va prognozning bazaviy ekvivalenti (PBE) qo‘llaniladi; PBE < 1 prognozning o‘zi baza o‘sishidan past belgilanganini bildiradi. Ma’muriy darajada ixtiyoriy to‘lov darajasi (IXT) va qarzdorlik qamrovi koeffitsiyenti (QQK) baholanadi. Yakunida integral yig‘iluvchanlik indeksi (IYI) hisoblanadi:

$IYI_t = \Sigma\, w_i \times \min(1; K_i),\ \Sigma\, w_i = 1.$ (5)

Qiymatni bir bilan cheklash bir komponentning yuqori ko‘rsatkichi boshqa komponentlarning past qiymatlarini qoplamasligi uchun qo‘llanildi; vaznlar teng (0,25) olindi. Ko‘rsatkichlar tizimi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval
Soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik darajasini baholash ko‘rsatkichlari tizimi

Daraja	Ko‘rsatkich	Hisoblash tartibi	Iqtisodiy mazmuni
Makroiqtisodiy	Soliq tushumlari / YaIM (d)	$T / Y \times 100$	Iqtisodiyotdan soliq orqali olinadigan ulush
	Ta’sirchanlik koeffitsiyenti (β)	$\%\Delta T / \%\Delta Y$	Tushumlarning baza o‘sishiga javobi
	Bazaviy yig‘iluvchanlik koeffitsiyenti (BYK)	$T / [T_{t-1} \times Y_t/Y_{t-1}]$	Bazaga mutanosib kutilgan tushumning bajarilishi
Rejaviy	Prognoz bajarilish koeffitsiyenti (PBK)	T / T^P	Tasdiqlangan vazifaning bajarilishi
	Prognozning bazaviy ekvivalenti (PBE)	$T^P / [T_{t-1} \times Y_t/Y_{t-1}]$	Prognozning soliq bazasiga mosligi
Ma’muriy	Ixtiyoriy to‘lov darajasi (IXT)	Ixtiyoriy to‘langan / jami majburiyat	To‘lov intizomi
	Qarzdorlik qamrovi koeffitsiyenti (QQK)	$1 - Q / T_{t-1}$	Tushumning qarzdorlikdan holi qismi
Integral	Integral yig‘iluvchanlik indeksi (IYI)	$\Sigma\, w_i \times \min(1; K_i)$	Umumlashgan baho

Manba: muallif ishlanmasi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Taklif etilgan ko‘rsatkichlarning 2021–2025-yillar ma’lumotlari asosida hisoblangan qiymatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval
Soliq tushumlarining yig‘iluvchanlik darajasi ko‘rsatkichlari, 2021–2025-yillar

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
Soliq tushumlari, trln so‘m	128,0	148,4	165,9	199,6	247,8
YaIM, trln so‘m	861,2	1 041,9	1 261,8	1 535,4	1 849,7
Soliq tushumlari / YaIM, %	14,9	14,2	13,1	13,0	13,4
Tushumlar o‘sishi, %	–	15,9	11,8	20,3	24,1
Nominal YaIM o‘sishi, %	–	21,0	21,1	21,7	20,5
Ta’sirchanlik koeffitsiyenti (β)	–	0,760	0,559	0,937	1,180
Baza effekti, trln so‘m	–	26,9	31,3	36,0	40,9
Yig‘iluvchanlik effekti (R), trln so‘m	–	−6,5	−13,8	−2,3	+7,3
BYK	–	0,958	0,923	0,989	1,031
Prognoz, trln so‘m	–	–	–	196,5	224,0
PBK	–	–	–	1,016	1,106
PBE	–	–	–	0,973	0,932

Manba: Soliq qo‘mitasi [16; 17; 19; 25; 26] va Milliy statistika qo‘mitasi [20] ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tahlil davrida soliq tushumlari 1,94 barobar, nominal YaIM esa 2,15 barobar oshgan. Natijada tushumlarning YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 14,9 foizdan 2024-yilda 13,0 foizgacha pasayib, 2025-yilda 13,4 foizgacha tiklangan (1-rasm).




1-rasm. Soliq tushumlari va ularning YaIMdagi ulushi, 2021–2025-yillar

Manba: Soliq qo‘mitasi va Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ta’sirchanlik koeffitsiyenti 2022–2024-yillarda birdan past bo‘lgan (0,760; 0,559; 0,937). Eng past qiymat 2023-yilga to‘g‘ri keladi: shu yildan QQS stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirilgan [21]. Soliq siyosati va soliq ma’muriyatchiligi ta’siri ajratilmasa, bunday yildagi past natija soliq organlari faoliyati bilan bevosita bog‘liq deb biryoqlama talqin qilinishi mumkin. 2025-yilda koeffitsiyent 1,180 ga yetib, tushumlar YaIMdan tezroq o‘sgan.

Dekompozitsiya natijalariga ko‘ra (2-rasm), 2022–2025-yillarda tushumlarning jami o‘sishi (119,8 trln so‘m) baza effekti (135,0 trln so‘m) va manfiy yig‘iluvchanlik effektidan (−15,2 trln so‘m) tashkil topgan. Boshqacha aytganda, agar soliq tushumlari butun davr mobaynida nominal YaIM bilan bir xil sur’atda o‘sganida, ya’ni 2021-yildagi 14,9 foizlik ulush saqlanganida, 2025-yilda ular 274,9 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lar edi. Bu haqiqiy ko‘rsatkichdan 27,1 trln so‘mga ko‘p. Ijobiy yig‘iluvchanlik effekti faqat 2025-yilda (+7,3 trln so‘m) qayd etilgan.



2-rasm. Soliq tushumlari o‘sishining baza effekti va yig‘iluvchanlik effektiga dekompozitsiyasi

Manba: muallif hisob-kitoblari.

PBK 2024-yilda 1,016, 2025-yilda 1,106 ni tashkil etgan; 2025-yilning I choragida ham 45,5 trln so‘mlik vazifa o‘rniga 48,2 trln so‘m tushum ta’minlangan [17]. Biroq PBE 2024-yilda 0,973, 2025-yilda 0,932 bo‘lgan: 224 trln so‘mlik vazifa 12,2 foizlik o‘sishni nazarda tutgan, nominal YaIM esa 20,5 foizga o‘sgan. Demak, PBKning yuqori qiymati qisman prognozning bazadan past belgilangani bilan izohlanadi va yig‘iluvchanlikni yakka o‘zi to‘liq aks ettirmaydi.

Ixtiyoriy to‘lov darajasi 2025-yilda 97 foiz, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha 98 foiz bo‘lgan [18]. 2026-yilning yanvar–sentabr oylarida o‘rtacha 89 foiz, suv solig‘i bo‘yicha 60 foiz, yer solig‘i bo‘yicha 86 foiz, mol-mulk solig‘i bo‘yicha 88 foiz qayd etilgan [22]. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari uchun 15-aprel va 15-oktabr to‘lov muddatlari belgilanganligi sababli oraliq ko‘rsatkich yillik yakuniy ko‘rsatkich bilan bevosita taqqoslanmaydi.

Faol soliq qarzdorligi 2025-yil aprel holatiga 8,5 trln so‘m [23] yoki 2024-yil tushumlarining 4,3 foizi (QQK = 0,957) bo‘lgan.

Integral yig‘iluvchanlik indeksining 2025-yil uchun hisoblangan qiymati 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval
Integral yig‘iluvchanlik indeksining hisob-kitobi, 2025-yil

Komponent	Hisob asosi	Qiymat	Me’yorlangan qiymat	Vazn
BYK	247,8 / (199,6 × 1849,7 / 1535,4)	1,031	1,000	0,25
PBK	247,8 / 224,0	1,106	1,000	0,25
IXT	Ixtiyoriy to‘lov darajasi	0,970	0,970	0,25
QQK	1 − 8,5 / 199,6	0,957	0,957	0,25
IYI	$\Sigma w_i \times \min(1; K_i)$	–	**0,982**	1,00

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Indeks qiymati (0,982) 2025-yilda yig‘iluvchanlik darajasi yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi; uning birdan past bo‘lishiga ixtiyoriy to‘lov darajasining to‘liq emasligi va soliq qarzdorligi ta’sir ko‘rsatgan. IXT o‘rniga 2026-yilning to‘qqiz oyidagi qiymat (0,89) qo‘yilsa, indeks 0,962 gacha pasayadi. Bu IXTni yagona hisob davri asosida e’lon qilish zarurligini ko‘rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot yig‘iluvchanlikni faqat prognoz bajarilishi va nominal o‘sish orqali baholash yetarli emasligini ko‘rsatdi: prognoz ortig‘i bilan bajarilgan bo‘lsa-da, 2022–2024-yillarda tushumlar soliq bazasi o‘sishidan ortda qolgan, 2022–2025-yillarda yig‘iluvchanlik effektining yig‘indisi esa −15,2 trln so‘mni tashkil etgan. Taklif etilgan uch darajali metodologiya bu tafovutni aniqlash, soliq siyosati ta’sirini soliq ma’muriyatchiligi natijalaridan ajratish va prognoz sifatini baholash imkonini beradi. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi:

- birinchidan, soliq organlarining rasmiy hisobotlarida prognoz bajarilish koeffitsiyenti bilan birga bazaviy yig‘iluvchanlik koeffitsiyentini (BYK) ham e’lon qilish. Bu tushumlar o‘sishini nominal YaIM o‘sishi bilan solishtirish imkonini beradi;
- ikkinchidan, soliq tushumlari prognozini belgilashda prognozning bazaviy ekvivalenti (PBE) kamida birga teng bo‘lishini ta’minlash, undan pastga og‘ish faqat soliq stavkalari va imtiyozlar o‘zgarishining hisob-kitob qilingan ta’siri bilan asoslantirilishi lozim;
- uchinchidan, ixtiyoriy to‘lov darajasini ikki shaklda – belgilangan muddatdagi (IXT_m) va yil yakunidagi (IXT_y) ko‘rsatkichlar sifatida e’lon qilish, mol-mulk, yer va suv soliqlari bo‘yicha esa to‘lov muddatlariga bog‘langan hisob davrini qo‘llash;
- to‘rtinchidan, soliq qarzdorligini soliq turlari va hududlar kesimida har oy tushumlarga nisbatan (QQK) e’lon qilish hamda integral yig‘iluvchanlik indeksini hududiy soliq organlari faoliyatini baholashning asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimiga kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 30.12.2019, O‘RQ-599. – https://lex.uz/docs/4674902.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 19-maydagi PF-95-son «Soliq organlari faoliyatini institutsional jihatdan takomillashtirish va soliq ma’muriyatchiligida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. – https://lex.uz/uz/acts/-8210422.
3. Allingham M.G., Sandmo A. Income tax evasion: a theoretical analysis // Journal of Public Economics. – 1972. – Vol. 1(3–4). – P. 323–338.
4. Belinga V., Benedek D., de Mooij R., Norregaard J. Tax buoyancy in OECD countries. – IMF Working Paper WP/14/110. – 2014.
5. Bird R.M., Martinez-Vazquez J., Torgler B. Tax effort in developing countries and high income countries: the impact of corruption, voice and accountability // Economic Analysis and Policy. – 2008. – Vol. 38(1). – P. 55–71.
6. Gupta A.S. Determinants of tax revenue efforts in developing countries. – IMF Working Paper WP/07/184. – 2007.
7. Hutton E. The Revenue Administration–Gap Analysis Program: model and methodology for value-added tax gap estimation. – IMF Technical Notes and Manuals 17/04. – 2017.
8. Keen M., Slemrod J. Optimal tax administration // Journal of Public Economics. – 2017. – Vol. 152. – P. 133–142.
9. Kirchler E. The economic psychology of tax behaviour. – Cambridge: Cambridge University Press, 2007.
10. Le T.M., Moreno-Dodson B., Bayraktar N. Tax capacity and tax effort: extended cross-country analysis from 1994 to

2009. – World Bank Policy Research Working Paper 6252. – 2012.
11. Майбуров И.А. Теория и история налогообложения: учебник. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007.
12. OECD. Tax Administration 2023: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2023.
13. Slemrod J. Tax compliance and enforcement // Journal of Economic Literature. – 2019. – Vol. 57(4). – P. 904–954.
14. Tanzi V. Inflation, lags in collection, and the real value of tax revenue // IMF Staff Papers. – 1977. – Vol. 24(1). – P. 154–167.
15. Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish: darslik. – T.: Sharq, 2009.
16. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. 2024-yil yakunlari: biznes rivoji va soliq tushumlari. – 07.01.2025. – https://gov.uz/oz/soliq/news/view/33122.
17. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. Soliq qo‘mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar. – Press-reliz, 01.04.2025. – https://gov.uz/oz/soliq/news/view/42899.
18. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. Soliqlarning ixtiyoriy to‘lanish darajasi. – 08.01.2026. – https://gov.uz/oz/soliq/news/view/121695.
19. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. 2025-yilda soliq tushumlari 247 trln so‘mdan oshdi. – 27.01.2026. – https://gov.uz/oz/soliq/news/view/124712.
20. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti hajmi 7,7 foizga o‘sdi. – 27.01.2026. – https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66554-2025-jilda-zbekiston-yalpi-ichki-mahsuloti-azhmi-7-7-foizga-sdi-2.
21. Buxgalter.uz. 2023-yilda QQSni qanday to‘laymiz. – 05.01.2023. – https://buxgalter.uz/oz/publish/doc/text186966_2023_yilda_qqsni_qanday_tulaymiz.
22. Daryo.uz. Aholi va tadbirkorlarning 89 foizi soliqlarni ixtiyoriy to‘lamoqda — Soliq qo‘mitasi. – 11.10.2026. – https://daryo.uz/2026/10/11/aholi-va-tadbirkorlarning-89-foizi-soliqlarni-ixtiyoriy-tolamoqda-soliq-qomitasi/.
23. Kun.uz. 2027-yildan boshlab san’atkorlardan daromad solig‘i majburiy undiriladi – Soliq qo‘mitasi. – 02.04.2025. – https://kun.uz/news/2025/04/01/2027-yildan-boshlab-sanatkorlardan-daromad-soligi-majburiy-undiriladi-soliq-qomitasi.
24. Kun.uz. Davlat budjetining 2025-yildagi ijrosi. Defitsit – 39 trln so‘mgacha qisqardi. – 25.03.2026. – https://kun.uz/83262569.
25. O‘zA. Davlat byudjetiga shu yilning birinchi choragida 40,3 trillion so‘mlik soliq tushumlari tushgan. – 23.04.2024. – https://uza.uz/oz/posts/davlat-byudjetiga-shu-yilning-birinchi-choragida-403-trillion-somlik-soliq-tushumlari-tushgan_591361.
26. Spot.uz. 2022-yilda soliq tushumlari 16 foizga o‘sdi. – 11.01.2023. – https://www.spot.uz/oz/2023/01/11/tax-revenues/.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100